YOD TANQISLIGI BO‘LGAN BEMORLARDA PARODONT VA TISH QATTIQ TO‘QIMALARI KASALLIKLARINI DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH

Taylakova D. I.
PhD, Terapevtik stomatologiya kafedrasi dotsenti, Buxoro Davlat tibbiyot instituti.

Xayitova M. D.
Osiyo Xalqaro Universiteti Stomatologiya kafedrasi assistenti
https://orcid.org/0009-0007-6597-8519
mohinurxayitova45@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23169818

Kirish Yod qalqonsimon bezning normal ishlashi va tiroid gormonlari sintezi uchun zarur bo‘lgan eng muhim mikroelement hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi yod tanqisligi o‘rtacha va yaqqol namoyon bo‘ladigan hududlar qatoriga kiradi. Qalqonsimon bez gormonlari suyak to‘qimasi va tish-jaq tizimi to‘qimalarining o‘sishi hamda tabaqalanishida, shuningdek, moddalar almashinuvini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Qalqonsimon bez funksiyasining buzilishi mineral almashinuvining o‘zgarishiga, suyak to‘qimasi qayta shakllanishining buzilishiga va tish emali chidamliligining pasayishiga olib keladi. Zamonaviy tadqiqotlar qalqonsimon bez kasalliklari va og‘iz bo‘shlig‘i patologiyasi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik borligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli, yod tanqisligi bor bemorlarda stomatologik holat xususiyatlarini o‘rganish va davolashning samarali usullarini ishlab chiqish zamonaviy stomatologiyaning dolzarb vazifalaridan biridir.

Maqsad Yod tanqisligi bo‘lgan bemorlarda klinik-laborator tadqiqotlar asosida parodont va tish qattiq to‘qimalari kasalliklarini davolashni maqbullashtirish.

Material va usullar Tadqiqotga Buxoro viloyati (Jondor va Qorako‘l tumanlari, Buxoro shahri) hududida yashovchi 18–26 hamda 30–35 yoshdagi bemorlar jalb etildi. Bemorlarning stomatologik holatini klinik baholashda OHI-S (og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi indeksi), milk qonash indeksi (PBI), parodontal yallig'lanish indeksi (PI) va KPU (karies-plomba-yulib tashlangan tish) indekslari aniqlandi. Laborator tekshiruvlarda og‘iz suyuqligining biokimyoviy ko‘rsatkichlari: kalsiy va fosfor miqdori, ishqoriy fosfataza faolligi, immunoglobulinar darajasi hamda so‘lak pH ko‘rsatkichi o‘rganildi. Olingan natijalar variatsion statistika usullari yordamida tahlil qilindi.

Natijalar Yod tanqisligi bor bemorlarning stomatologik holati tahlili shuni ko'rsatdiki, endokrin patologiyasi yo‘q bemorlarga nisbatan parodont va tish qattiq to‘qimalari kasalliklarining tarqalish darajasi sezilarli darajada yuqori. Xususan, asosiy guruhda gingivit (52% ga nisbatan 28%), surunkali tarqalgan parodontit (41% ga nisbatan 17%), tish bo‘yni kariyesi (46% ga nisbatan 23%), emal eroziyasi (29%) va tish giperesteziyasi (38%) kabi holatlar nazorat guruhiga nisbatan deyarli ikki barobar ko‘p uchrashi qayd etildi.

Og‘iz suyuqligining biokimyoviy tahlillari asosiy guruh bemorlarida so‘lakning mineralizatsiya salohiyati pasayganligini tasdiqladi: kalsiy (1,12±0,04 mmol/l) va fosfor (4,37±0,09 mmol/l) darajasining statistik ahamiyatli pasayishi kuzatildi ($p<0,05$). Shuningdek, so‘lak pH ko‘rsatkichi kislotali muhit tomonga siljigani (6,54±0,07) va mahalliy immunitet ko‘rsatkichi bo‘lgan sekretor immunoglobulin A darajasining pasaygani (129,7±5,8 mg/l) aniqlandi. Ishqoriy fosfataza faolligi esa nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi (52,3±1,7 Ed/l) kuzatildi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Stomatologik indekslarni baholash natijalariga ko'ra, yod tanqisligi bor bemorlarda KPU indeksi (9,7±0,5), OHI-S gigiyena indeksi (2,04±0,09), milk qonash indeksi (1,76±0,08), parodontal indeks (2,21±0,10) va parodontal cho‘ntaklar chuqurligi (3,9±0,2 mm) nazorat guruhidagilarga ($p<0,05$) nisbatan ishonchli darajada yuqori bo‘lishi tasdiqlandi.

Xulosa Yod tanqisligi parodont kasalliklari va tish qattiq to‘qimalari shikastlanishlari rivojlanishida muhim xavf omili hisoblanadi. Qalqonsimon bez funksiyasining buzilishi mineral almashinuvining o‘zgarishi, so‘lakning mineralizatsiya salohiyatining pasayishi hamda og‘iz suyuqligi immun gomeostazining buzilishi bilan kechib, patogen mikroflora ko'payishi uchun qulay sharoit yaratadi. Yod tanqisligi bor bemorlar uchun mahalliy va tizimli o'zgarishlarni korreksiya qilishga qaratilgan kompleks diagnostika hamda individual davolash-profilaktika dasturlarini ishlab chiqish stomatologik kasalliklarni davolash samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: yod tanqisligi, parodont kasalliklari, surunkali tarqalgan parodontit, tish kariyesi, qalqonsimon bez, og‘iz suyuqligi.

Adabiyotlar:

1. Aldulaijan HA, Cohen RE, Stellrecht EM, Levine MJ, Yerke LM. Relationship between hypothyroidism and periodontitis: a scoping review. Clin Exp Dent Res. 2020;6(1):147–157.
2. Inchingolo F, Inchingolo AM, Ferrante L, et al. Bidirectional association between periodontitis and thyroid disease:a scoping review. Int J Environ Res Public Health. 2024;21(7):860.
3. Ortarzewska M, Nijakowski K, Jankowski J, et al. Periodontal disease in patients with thyroid diseases: a systematic review with meta-analysis. Adv Med Sci. 2024;69(2):289–295.
4. Gao Y, Huang D, Liu Y, et al. Periodontitis and thyroid function: a bidirectional Mendelian randomization study. J Periodontal Res. 2024;59(3):491–499.
5. Song E, Park MJ, Kim JA, et al. Implication of thyroid function in periodontitis: a nationwide population-based study. Sci Rep. 2021;11:22127.
6. Shcherba V, Krynytska I, Marushchak M, Korda M. Does thyroid dysfunction influence inflammatory mediators in experimental periodontitis? Endocr Regul. 2021;55(3):131–141.
7. Shcherba V, Havrylenko Y, Krynytska I, et al. Comparative study of oral microbiocenosis structure in experimental periodontitis combined with thyroid dysfunction. Pol Merkur Lekarski. 2020;48(283):32–38.
8. Kostenko YY, Melnyk VS, Horzov LF, Kostenko SB. Prevalence of main dental diseases in children living in conditions of fluorine and iodine deficiency. Dent Res J. 2019;16(4):271–275.
9. Romanenko IG, Kekosh EA. Interrelation between alterations in periodontal tissues and thyroid gland in patients with Hashimoto thyroiditis. Crimean Ther J. 2017;(3):45–49.
10. Guseynov TS, Akhmedova EA, Gasanov MA. Therapeutic and prophylactic features of periodontitis in patients with thyroid gland diseases. J New Med Technol. 2019;(2):112–116.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.